

BEGONA O‘TLARGA TA’SIRI

Sayfullayeva Nazokat Qobuljonovna

*Namangan muxandislik-texnologiya inistituti “Qishloq xo‘jaligi
maxsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash
texnologiyasi” kafedrasida assistenti (PhD)*

Jamoliddinova Guloyim Doniyor qizi

*Namangan muxandislik-texnologiya inistituti “Qishloq xo‘jalik
maxsulotlarini saqlash va dastlabki
ishlash texnologiyasi” ta’lim yo‘nalishi talabasi*

Abduqaxarova Saodat Ravshanbek qizi

ToshDAU magistri

Annotatsiya: *Maqolada makkajo‘xori dalasida uchraydigan begona o‘tlarga qarshi stomp gerbitsidining turli me‘yorlarining ta’siri o‘rganilgan va tajriba natijalari asosida xulosa chiqarilgan.*

Annotation: *In this article, the effect of different amounts of stomp herbicide against weeds in the cornfield is carried out and concluded according to the results of the experiment.*

Makkajo‘xori don yetishtirishni ko‘paytirishdagi asosiy ekinlardan biri. Mamlakatimizda don yetishtrishni ko‘paytirish oziq-ovqat maxsulotlariga doir bo‘lishi bilan birga, chorvachilikni ozuqa zaxiralari xam bevosita daxldordir. Lekin makkajo‘xoridan yuqori sifatli don hamda ko‘k poya xosili olishda begona o‘tlar nihoyatda katta zarar keltiradi. Ular madaniy ekin makkajo‘xorining hayot omillari bo‘lgan tuproq havosini, ozuqasini, suv, yorug‘lik va issiqdan jiddiy mahrum qilib uni o‘sishi va rivojlanishiga salbiy ta’sir qiladi, hamda xosil salmog‘i va sifatini pasaytiradi. Bundan kelib chiqadiki makkajo‘xori dalalaridagi begona o‘tlarga qarshi izchil kurashmoq zarur.

SHu boisdan biz Namangan viloyati Uychi tumani Doston Uychi diyori fermer xo'jaligida dala tajribasini o'tkazdik.

Xo'jalikni tuprog'i o'tloqi bo'z, qadimdan sug'oriladi, sizot suvlari yer yuzasidan 5-6 metr chuqurlikda joylashgan. Tadqiqotlar kuzgi bug'doydan so'ng takroriy makkajo'xori ekilgan dalaga Ctomp gerbitsidi samaradorligini o'rganish bo'yicha 1-jadvalda keltirilgan tartibga o'tkazildi.

Dala tajribasi 4 qaytariqda, bo'lakchalar 2 yarusda joylashtirilib o'tkazildi. Bir bo'lakchanning umumiy maydoni 100 kv m, hisobga olish maydonchasi 50 kv m, **Ctomp gerbitsidi** qo'l apparatida makkajo'xori ekilgandan so'ng ertasiga sepildi. Qator orasi 60 sm, makkajo'xorining Fito F₁ gibridi ekildi.

Takroriy makkajo'xorini parvarishlashda viloyatlar uchun tavsiya etilgan agrotadbirlarga rioya qilindi (begona o'tlarga qarshi kimyoviy kurash bundan mustasno)

Tajriba jarayonida nazorat variant bo'lakchalari bir marta chopiq, ikki marta o'toq qilindi. Ctomp gerbitsidi sepilgan variantlarda esa bir marta qo'l o'tog'i o'tkazildi. Tadqiqot olib borishda B.A. Dospexov (1981) va O'zPITI ning (2007) uslubnomalariga amal qilindi.

Quyida tadqiqot natijalarini qisqa tahlil etamiz. Eng avvalo shuni e'tirof etishimiz lozimki, Ctomp gerbitsidining kam yillik begona o'tlarga salbiy ta'siri kuchli, ko'p yilliklarga esa kuchsiz darajada bo'ldi.

Bizning nazarimizda Ctomp gerbitsidining 1,0 l/ga me'yori eng samaralidir. Yohud gerbitsidni eng kam me'yori 20-iyulda 87% begona o'tlarni nobud qilgan bo'lsa, me'yori 50 % ga oshirilganda kamayish 5,0% ga, me'yori 2 barobar oshirilganda 7.8 % ga ortgan xolos.

Demak takroriy makkajo'xori dalasida Ctomp gerbitsidining eng maqbul me'yori gektar hisobiga 1,0 l bo'lgani ma'qul ekan. Gerbitsid me'yorini 50 va 100 % ga oshirish iqtisodiy va ekologiyaviy nuqtai nazardan ham maqbul emas. Qolaversa gerbitsidning 2,0 l ga me'yori yosh makkajo'xori nihollariga ham biroz salbiy ta'sir ko'rsatgani ham aniqlandi (2-jadval)

Takroriy makkajo‘xorining eng sust o‘sishi va rivojlanishi kuchli darajada begona o‘tlar bo‘lgan (amal davrida jami 70,9 kv m dona) nazorat variantida kuzatildi.

Begona o‘tlar 90-96% tozalangan 2-va 3-variantlarda makkajo‘xori tez o‘sdi, rivojlandi va yuqori xosil shakllandi.

1-jadval

Ctomp gerbitsidining begona o‘tlarga ta’siri

№	Variantlar	Begona o‘tlarning kamayishi		
		20-iyul	20-avgust	20-sentyabr
1	Gerbitsidsiz nazorat	53,9	11,4	5,6
2	Ctomp- 1,0 l/ga	89,9	31,4	12,6
3	Ctomp- 1,5 l/ga	95,7	42,1	14,3
4	Ctomp- 2,0 l/ga	98,5	45,3	15,7

Izox: 1-variantda begona o‘tlar soni m²/dona

2-jadval

Makkajo‘xori o‘sishi, rivojlanishi va don hosildorligi

№	Variantlar	Xosilni yig‘ishtirishdan oldin			Bitta so‘tadagi don soni	1000 dona don vazni gr	Don xosildorligi ts/ga
		Bo‘yi Sm	Bargsoni, dona	So‘tasoni, dona			
1	Gerbitsidsiz nazorat	232.7	16,5	1,0	456,3	260,3	83.5
2	Ctomp 1,0 l/ga	246.4	17,6	1,1	471,5	262,1	91.4
3	Ctomp 1,5 l/ga	245.2	17,5	1,0	475,1	261,9	89.2
4	Ctomp 2,0 l/ga	230.5	16,9	1,0	460,0	260,2	87.3

Аmmo, Ckomp gerbitsidining 2,0 l/ga me'yori qo'llangan 4-variantda kimyoviy modda qisman zararlagan makkajo'xori o'simligi boshqa gerbitsidli variantlarga nisbatan sekin o'sdi, sust rivojlandi. Makkajo'xorining o'sishi va rivojlanishiga variantlararo tafovutlar don xosildorligida ham aks etdi.

Xususan nazorat variantdan 82.5 ts/ga don yig'ishtrib olindi, 2-variantda qo'shimcha 8.9 ts/ga 3-variantdan 6.7 ts/ga don xosili chiqdi. Ckomp gerbitsidi eng yuqori me'yorda qo'llangan 4-variantni qo'shimcha hosili 4,8 ts/ga bo'ldi xolos. Tadqiqot natijalariga asoslanib, xulosa qilish mumkinki, og'ir mexanik tarkibli o'tloqi bo'z tuproqlariga takroriy makkajo'xori dalalaridagi begona o'tlarga qarshi Ckomp gerbitsidini gektar xisobiga 1,0 litrdan qo'llash kerak ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.Oripov, N.Xalilov. O'simlikshunoslik Toshkent 2006. y. 337.b.
2. Методические указания по Государственным испытаниям гербицидов на посевах с/х культур. Ташкент, 2007.
3. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. Москва, 1985.
4. S Tursunov Dala ekinlari mahsulotlarini yetishtirish texnologiyasi. Toshkent 2013.
5. A.Xamidov "O'zbekistondagi begona o'tlar" Toshkent 1973y